




**SURXONDARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SURXONDARYO  
VILOYATINING SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI  
2023- YIL YANVAR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Tel.: 76-225-65-76

[www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz)


## Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 433,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 81,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,8 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 25,3 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish – 13,9 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ini tashkil etdi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	13,7	22,6	8,9
Neft, ming t.	7,4	5,9	-1,5



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	2,7	2,1	-0,6
Chaqiq tosh, ming t.	3,9	0,0	-3,9

### Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 406,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,8 % ini tashkil etdi.


2022- yil yanvar

92,0 %

2023- yil yanvar


93,8 %





O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2022- yilning yanvar oyida – 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % ( 0,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 19,5 % ( 18,5 %) va quyi texnologiyalisi – 73,7 % ( 72,7 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 7,1 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 116,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 72,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 45,9 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 68,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,6 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 89,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,6 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 121,5 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2023- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1,6 ming tonna paxta tolasi (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 56,6 % ga kamaygan), 0,4 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (16,3 % ga kamaygan), 0,1 ming tonna lint (24,1 % ga kamaygan), 3,3 ming tonna neft bitumi (59,7 % ga kamaygan) hamda ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	2,1	1,6	-0,5
Paxta tiviti (lint), ming t.	3,5	0,1	-3,4
Neft bitumi, ming t.	2,3	3,3	1,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	3,5	7,8	4,3
Saryog', t.	0,4	0,0	-0,4
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	0,4	0,3	-0,1

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 100,3 bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi esa, 72,6 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 1,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oylida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 14,0 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 22,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar- oyi yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,9 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 102,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 29,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar- oyi yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 93,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 54,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 126,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 41,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 62,7% ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 179,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 83,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4 %, fizik hajm indeksi 103,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 19,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 50,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 103,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 133,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,9 % ni, fizik hajm indeksi 69,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 29,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 99,8 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 134,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 31,4 % ga kamayganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	0,0	0,0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2,6	5,8	3,2

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ini) tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	0,02	0,02	0
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	1,5	2,6	1,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 4,2 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,02 mlrd. so'm shuningdek, 2,6 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 141,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 84,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 32,7 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari



### Nooziq-ovqat mahsulotlar

